

UO'T: 332.

QORAKO'LCHILIK TARMOG'IDA BIOXILMA-XILLIKNI TIKLASH VA TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASH MEKANIZMLARI

Shodiyev Bekzod To'liqinovich

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

"Iqtisodiyot" kafedrası dotsenti, i.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Maqolada qorako'lchilik tarmog'ida bioxilma-xillikni tiklash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari yoritilgan. Cho'l-yaylov hududlarida ekologik barqarorlikni ta'minlash, resurslardan oqilona foydalanish va innovatsion takliflar beriladi. Qorako'lchilik xo'jaliklariga ta'sir qiluvchi asosiy institutsional, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillar tahlil qilinib, yaylovlardan samarali foydalanish va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: qorako'lchilik, bioxilma-xillikni tiklash, yaylov resurslari, ekologik barqarorlik, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, innovatsion texnologiyalar, resurslardan oqilona foydalanish, institutsional mexanizmlar, yaylov degradatsiyasi, qishloq xo'jaligi samaradorligi.

Аннотация: В статье рассмотрены механизмы восстановления биоразнообразия и поддержки предпринимательства в каракулеводческой отрасли. Представлены инновационные предложения по обеспечению экологической устойчивости в пустынно-пастбищных регионах и рациональному использованию природных ресурсов. Проанализированы основные институциональные, экономические, социальные и экологические факторы, влияющие на деятельность каракулеводческих хозяйств, а также предложены механизмы эффективного использования пастбищ и поддержки малого бизнеса.

Ключевые слова: каракулеводство, восстановление биоразнообразия, пастбищные ресурсы, экологическая устойчивость, поддержка предпринимательства, инновационные технологии, рациональное использование ресурсов, институциональные механизмы, деградация пастбищ, эффективность сельского хозяйства.

Annotation The article examines mechanisms for restoring biodiversity and supporting entrepreneurship in the karakul sheep-breeding sector. It presents innovative proposals aimed at ensuring environmental sustainability in desert-pasture regions and promoting the rational use of natural resources. The study analyzes key institutional, economic, social, and environmental factors affecting karakul farms and proposes mechanisms for efficient pasture management and small business support.

Key words: karakul sheep breeding, biodiversity restoration, pasture resources, environmental sustainability, entrepreneurship support, innovative technologies, rational use of resources, institutional mechanisms, pasture degradation, agricultural efficiency.

Kirish

Qishloq xo'jaligi O'zbekiston iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qayta ishlash sanoatini xom ashyo bilan ta'minlash hamda mamlakatning eksport salohiyatini oshirishda muhim o'rin tutadi. So'nggi yillarda agrar sohada chuqur tarkibiy islohotlar olib borilib, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda bozor mexanizmlarini keng joriy etish, resurslardan samarali foydalanish, tadbirkorlikni rivojlantirish va raqobatbardosh ishlab chiqarishni shakllantirish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilab kelinmoqda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlikning ahamiyati yanada oshib, ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlash, innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish, yangi ish o'rinlari yaratish hamda hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi asosiy omillardan biriga aylangan. Ayniqsa qorako'lchilik va yaylov chorvachiligi kabi an'anaviy tarmoqlarni zamonaviy negizda qayta rivojlantirish ekologik barqarorlikni ta'minlash, bioxilma-xillikni saqlash va cho'l hududlaridan oqilona foydalanish nuqtai nazaridan dolzarb hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Qishloq xo'jaligida tadbirkorlikni rivojlantirish, yaylov resurslaridan samarali foydalanish va qorako'lchilik tarmog'ini modernizatsiya qilish bo'yicha oxirgi yillarda milliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan keng ko'lamli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, agrar sohada tadbirkorlikni rag'batlantirishning nazariy asoslari, ekologik barqarorlik va resurslardan oqilona foydalanish masalalari o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan ilmiy yo'nalish hisoblanadi.

Qorako'lchilik sohasida islohotlarni yanada chuqurlashtirish, yaylov chorvachiligi bilan shug'ullanayotgan naslchilik mas'uliyati cheklangan jamiyatlar (MChJ), shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish, ularni iqtisodiy barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash, chorvadorlar mehnatini moddiy rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 martda "Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5696-son farmoni [1], 2018 yil 14 martda "Qorako'lchilik sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3603-son [2] va 2019 yil 18 avgustda "Qorako'lchilik tarmog'ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi №4420-son [3] qarorlari qabul qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida iqtisodiy jarayonlarni kompleks o'rganish, omillararo o'zaro bog'liqlikni aniqlash hamda mavjud muammolarni baholashga qaratilgan bir qator ilmiy usullar qo'llanildi. Bular: **nazariy tahlil usullari, statistik va iqtisodiy tahlil usullari, tizimli yondashuv, ekspert baholash usuli, modellashtirish va prognozlash usullari.**

Mazkur metodlar yig'indisi, tadqiqotda qishloq xo'jaligi tarmoqlarida tadbirkorlikni rag'batlantirish jarayonlarini har tomonlama o'rganish, yaylov resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash va qorako'lchilikning iqtisodiy-ekologik barqarorligini ta'minlashga doir ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqish imkonini berdi.

Tadqiqot davomida qorako'lchilik tarmog'i va yaylovlardan foydalanish bo'yicha mavjud iqtisodiy, ekologik va institutsional sharoitlar kompleks o'rganildi.

Tahlil va muhokama

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, qorako'lchilik tarmog'ining rivoji ko'plab omillar kesishgan murakkab tizimga bog'liq. Avvalo, tarmoqning iqtisodiy samaradorligi bevosita **yaylov resurslaridan oqilona foydalanish** darajasiga, **ekologik muvozanatni saqlashga** va **innovatsion texnologiyalarning joriy etilishiga** bog'liq.

Institutsional muammolar:

- strategik rivojlanish dasturlari amalda to'liq bajarilmayapti;
- xo'jaliklar uchun moliyaviy resurslar yetishmaydi.

Ekologik omillar va yaylovlarning degradatsiyasi:

- o'simlik qoplamasi qashshoqlashgan;
- chorva zichligi me'yorida 1,3–1,7 baravar yuqori;
- suv quduqlari taqsimotida hududiy nomutanosiblik mavjud.

Innovatsion texnologiyalarning past joriy etilishi:

- xo'jaliklarning atigi 20-25 foizi zamonaviy resurs-tejamkor usullarni qo'llamoqda;
- texnik xizmat ko'rsatish tizimi zaif;
- innovatsion xizmatlarni taklif etuvchi tashkilotlar kam.

Xulosa

Qorako'lchilik tarmog'ini barqaror rivojlantirish maqsadida alohida rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish zarur bo'lib, bunda bir qator ustuvor yo'nalishlarni belgilab olish muhimdir.

Avvalo, resurs tejovchi texnologiyalarni joriy etayotgan xo'jaliklar uchun soliq imtiyozlari va davlat subsidiyalarini qo'llash, tarmoq subyektlariga taqdim etiladigan kreditlarning foiz stavkalarini pasaytirish orqali investitsion jozibadorlikni oshirish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, bioxilma-xillikni tiklash va monitoring qilish tizimini takomillashtirish, cho'l-yaylov hududlarida suv ta'minotini yaxshilash uchun

energiya tejamkor nasoslar hamda ilg'or quduq texnologiyalarini keng tatbiq etish tarmoqning ekologik barqarorligini mustahkamlaydi.

Qorako'lhilik xo'jaliklarining kooperatsiyalar asosida tashkil etilishi mahsulotni qayta ishlash va bozorga yetkazib berish imkoniyatlarini kengaytirib, qiymat zanjirining samarali shakllanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, xo'jaliklar uchun marketing faoliyatini yo'lga qo'yish, biznes-reja tuzish va strategik rejalashtirish bo'yicha konsalting xizmatlarini rivojlantirish tarmoq subyektlarining boshqaruv salohiyatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Umuman olganda, ushbu taklif va mexanizmlarni amaliyotga joriy etish qorako'lhilik tarmog'ining iqtisodiy samaradorligini oshirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda tarmoqning uzoq muddatli rivojlanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 martdagi PF-5696-sonli "Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. <https://www.lex.uz/uz/docs/-4259331>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 martdagi PQ-3603-sonli "Qorako'lhilik sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori. <https://www.lex.uz/uz/docs/-3587484>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18 avgustdagi PQ-4420-sonli "Qorako'lhilik tarmog'ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. <https://www.lex.uz/uz/docs/-4476585>
4. Shodiyev B., Xolmirzaev T. Qorako'lhilik tarmog'ining barqaror rivojlanishi // Экономика и социум. 2024. №12-2 (127). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/qorako-lchilik-tarmog-ining-barqaror-rivojlanishi> (дата обращения: 22.11.2025).
5. Шодиев Б.Т., & Абдиева Д.К. (2023). УВЕЛИЧЕНИЕ ОБЪЕМОВ ПРОИЗВОДСТВА ПРОДУКЦИИ КАРАКУЛЕВОДСТВА. Экономика и социум, (12 (115)-1), 1559-1562.